

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

URGANCH FILIALI

KURS ISHI

Mavzu: Windows OS da ishlashni o‘rgatuvchi video materiallar tayyorlash

Bajardi:

Masharipova Shirin.

Mundarija

Kirish	3
I-BOB. Asosiy qism	8
1.1. Video materiallarni tayyorlovchi dasturiy paketlar haqida ma'lumot	8
1.2. Windows OS yaratilish tarixi va hozirgi kundagi axvoli	14
1.3.Windowsda ishlash bo'yicha video taqdimotlar yaratish	18
Xulosa	26
Foydalanilgan adabiyotlar.....	27

Kirish

Xozirgi paytda Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da nazarda tutilgan barcha rejalar muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi va davom ettirilmoqda.

Tabiiyki, bu maqsadlarni yuqori saviyada amalga oshirish uchun oliygohlar, kollej va litseylarning bitiruvchilari har tomonlama yetuk kadrlar bo‘lib yetishmog‘i – zamon talabidir. Oliygozlarda magistrlar tayyorlashni yuqori saviyada tashkil etish ham shu programmaning bir qismidir.

Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov, muntazam ravishda yosh avlodning bilimli, barkamol bo‘lib yetishishi va mustaqil O‘zbekistonimizning fidoyi kadrlari bo‘lmog‘i uchun sharoitlar yaratib bermoqdalar, o‘zlarining har bir nutqlarida yoshlarning ta‘lim tarbiyasi, bilim saviyasi, dunyoqarashini shakllantirish kabi dolzarb muammolarga alohida e‘tibor qaratmoqdalar.

Pedagogik yondashish o‘quv jarayoniga didaktik maqsadlarni qo‘llashga asoslangan. Informasion yondashish bo‘lsa, o‘ziga xos o‘qitish muhitini yaratishga asoslangan bo‘lib, unda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish jarayonida kompyuterda modellashtirilgan obyektlarning ichki, tashqi xossalarni dinamik suratda ko‘rsatish bilan o‘quvchi-talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish bilan bir qatorda, intellektual rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi. Informasion yondashish asosan axborot texnologiyalarining vositalari orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar, xalq ta‘limi tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatib o‘tganidek har bir o‘qituvchi oldiga muhim vazifalar qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarni amaliyotga joriy etilishi ta‘lim sohasidagi islohotlarning izchilligini ta‘minlash barobarida 2004-2009-yillarda maktab ta‘limini rivojlanishning davlat umummilliy dasturida belgilangan vazifalarni

ro'yobga chiqarishning sifat va samaradorligini ta'minlovchi ma'suliyatli davrni boshlab berdi. Bu qonunlarni amaliyotda qo'llash, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarlarida: "Ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"[I.4. 4 –bet] , - deb bekorga ta'kidlamagan edilar. Shuningdek, bosh vazifalardan biri sifatida: "Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, kabi tamoyillarning ma'no mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy ma'rifiy, ta'lim – tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" ekanligini ham alohida qayd etib o'tgan edilar.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotganm avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni yetayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatnixalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyotyo'limizni ongli ravishdaqabul qilgani va qo'llab quvvatlayotgani oldimizgaqo'ygan maqsadlargaerishishning asosiy manbayi va garovi ekanini

hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Shuningdek Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin".

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularni boshqarish, tartibga solishda prezidentimiz I. Karimovning olib borayotgan islohotlari va ko'rsatmalari haqiqiy mezon vazifasini o'tamoqda. Prezidentimiz barcha sohalarda qanday ishlar olib borilishi lozimligi ularning samarali yo'lga qo'yish borasida doimiy ravishda yo'l – yo'riqlar ko'rsatib kelmoqdalarki, ularga amal qilgan holda biz mamlakatimizning bugungi darajadagi rivojlanishiga erishdik deb aytishimiz mumkin. Shu jumladan e'tibor beradigan bo'lsak ta'lim sohasida, farzandlarimizga ta'lim – tarbiya berish borasida, xalqimizni ma'naviy – ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirishda olib borilayotgan ishlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda va ma'lum natijalarga erishilmoqda.

Kompyuter texnologiyalari to'g'risida so'z yuritilganda, odatda ko'z oldimizda axborot texnologiyalari mujassamlanadi. Buning sababi, shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi axborot texnologiyalarining ommaviylashishiga va uni keng miqyosda tadbqiq etilishiga olib kelinganligidadir. Chunki shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi natijasida axborot texnologiyalarining mahsuli bo'lgan dasturiy vositalarga zaruriyat ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shaxsiy kompyuterni tadbqiq, etish bo'yicha erishilgan muhim yutuqlardan biribu multimedia vositalarining yaratilishidir. Shaxsiy kompyuterlar multimedia vositalaridan, ya'ni ovoz, grafika, animasiya, video vositalaridan keng ko'lamda

foydalanish sari yo'l ochdi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining multimedia vositalari yordamida o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari paydo bo'la boshladi. Bular sirasiga virtual kutubxona, virtual o'qitish texnologiyalarini kiritish mumkin. Virtual kutubxona - bu o'quv materiallari elektron nusxada chop etilgan yagona katalog tizimiga ega bo'lgan elektron kutubxonadir. Elektron kutubxonadagi o'quv materiallarini tarmoq tizimi imkoniyatlaridan foydalanib o'qish mumkin. Elektron kutubxonadan yoki boshqa manbalardan tarmoq tizimi yordamida materiallarni olib o'qish-virtual o'qish deb yuritiladi. Yangi axborot texnologiyalari asosida boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuritish, moliya ishlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarishni ta'minlash kabi ishlarni bajarish imkoniyatlari tug'ildi. Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari tufayli yuzaga kelgan juda katta imkoniyatga ega bo'lgan muharrirlarni, tarjima qiluvchi dasturiy vositalarni keltirish mumkinki, ularning yaratilishi ta'lim tizimida ham o'z samarasini bermoqda. Shu o'rinda olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan telekommunikasion (kabelli, shisha tolali, sputnikli) aloqa vositalari asosida tashkil etilgan Internet tizimining insoniyatga juda keng imkoniyatlar yaratganligini ta'kidlash lozim. Internet hozirgi kunda butun insoniyat bilimlarini birlashtirish, ularning aqliy qobiliyatlaridan unumli foydalanish kabi masalalarni yechish bilan bir qatorda, yangi adabiyotlar to'g'risida ma'lumot olish, masofadan turib o'qitish texnologiyasini amalga oshirish, musiqa eshitish, kino va boshqa sohalaridagi mashhur kishilarning (yulduzlarning) rasmlarini ko'rish, ular haqida ma'lumotlar olish, kundalik gazetani o'qib borish, ob-havo to'g'risida ma'lumot olish, kompyuter o'yinlari o'ynash, yangi ish joyi topish, magazindan xarid qilish, va hatto keng miqyosdagi biznes ishlarini amalga oshirish mumkin. Uchinchi ming yillikning boshlarida 120 mln. kompyuter yagona dunyo tarmog'iga ulangan, ulardan 1 mlrd. dan ziyod odamlar foydalanmoqda. Keyingi vaqtda internet dan o'spirin yoshlarning va xotin-qizlarning foydalanish sur'ati o'sib borayotganligini qayd etish mumkin. Bulardan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalarini tadbiq etish masalalariga tubdan boshqacha ko'z

bilan qaramoq lozim. Yuqorida qayd etilgan masalalar ta'lim tizimida ham yangi axborot texnologiyalarini tadbiq, etishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bilan bir qatorda, ularning yechimini kechiktirmasdan hal etish uchun chora-tadbirlar ko'rish zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Masalaning qo'yilishi

Windows OS da ishlashni o'rgatuvchi video materiallarni tayyorlash.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

Operatsion tizimlar va ularning turlari haqida ma'lumotlarni to'plash, o'rganish va tahlil qilish;

Windows operatsion tizimida ishlash malakalarini o'zlashtirish;

Videodarslarni yaratish uchun zarur dasturiy vositalarni tahlil qilish va o'rganish;

Camtasia Studio dasturidan foydalanib "Windows OS da ishlash" mavzusida videodars yaratish.

I-BOB. Asosiy qism

1.1. Video materiallarni tayyorlovchidasturiypaketlar haqidama'lumot

AutoPlay dasturi oynasining tuzilishi

Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir. Istalgan fayl yoki fayllar to'plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorun-menyusi hosil qilishda Autoplay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni taminlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin.

Amaliy dastur uchun grafik qobiqlarni yaratish, uni avtomatik ishga tushirish uchun Autoplay Media Studio barcha kerakli fayllarni o'zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diskarni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi. 2008-yilning 12-martida Indigo Rose Corparation kompaniyasi AutoplayMedia Studio 7.1.1007.0 versiyasini istemolga chiqardi. Dastur foydalanuvchilarga obyektlarni o'zaro bog'lashni amalga oshirishga yordam beradigan yuzlab vositalarni taqdim eta oladi. Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv ko'rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin. Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning Label, Paragraph va Button kabi obyektlari bilan birga

ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to'liq versiya bilan o'rnatilgan bo'lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug'atlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, AutoPlay Media Studio 7.0 ning yangi versiyasi quyidagi Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarni ham bimalol qayta ishlash mumkin.

Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obyektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin. Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi "niqob"lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday "niqob" sifatida .jpg, .bmp va .png kabi formatdagi fayllardan foydalanilsa ham bo'ladi. Qolaversa, malumotlarni CD uchun tayyorlagan holda uni dasturning o'zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadarkeng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

1. Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multimedia-ilovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta'minotlarni yaratish;

2. Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va boshqalarni biriktira olish xususiyati;

3. Web-ilova yaratishga mo'ljallangan mukammallashgan instrumentlar;

4. XML, SQL va shifrlash mexanizmlari bilan ishlay olishi;

5. RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi;

6. Slayd-shou bilan ishlash imkoniyati;

7. Matn rangini o'zgartirish uchun RadioButton obyektining mavjudligi;

8. Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;

9. Obyektlarni formatlash imkoniyati.

10. Kalit so'zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;

11. CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hokazo.

Ispring dasturi imkoniyatlari.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o‘quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point- taqdimotlar bazasida o‘quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashritish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta’lim tizimi uchun ma’lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o‘zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi.

iSpringning o‘rnatilishi muvofaqqiyatlibajarilgandan so‘ng ,Power Point ga iSpring insturimental qatori qo‘shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flashformatga o‘ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audiova videolar bilan Flahda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo‘ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo‘shiladigan xar bir ma’lumot Windows uchun o‘ziga xoss ahamiyatga ega.

- iSpring Pro yordamida:Windowda Flashnimuomilaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog‘lanish;
- Windownitaqdim etish;;
- Windowda audio yozish;
- Windowda vidio yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so‘rovlar qo‘yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

<Quick Publish> tugmasinibir marta bosish orqali yuqori darajadagi Flash movie o‘rnatiladi. iSpring Quick Publishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymaydi.iSpring

Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko'rsatkich Power Point 2007 dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko'plab harakatlarni o'z ichiga olganligi hamdashuko'rsatkich bo'yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

[\(Ilovalar 1-rasm ga qarang\)](#).

EAT resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy, ma'lumotnoma yoki lug'at yaratish;
- vaqt shkalasini yaratish;

- 3 o'lovli kitob yaratish;
- FAQ yaratish mumkin.



2-rasm . iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari


EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;
- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ochiq test topshiriqlari;
- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati

Slaydlar o'zgarishi


iSpring Pro barcha slaydlar Power Point 2003 , Power Point 2007, Power Point 2010 da slaydlar o'zgarishi harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Power Pointdagi barcha harakatlarni nomlari bilan keltirilgan.

Power Point dasturining umumiy interfeysi.



5-rasm. iSpring Pro dasturining ish qurollari

Power Point dastur muhitida iSpring dasturi paketi



Экспресс публикация –tez publikatsiyalash (jamlash). Bunda jimlik yoki joriy holatdagi sozlash asosida slaydlar yagona faylga jamlanadi



Опубликовать- publikatsiyalash(jamlash).Bunda foydalanuvchiga alohida oynada taqdimotning xususiyatlarini sozlash taklif etiladi.

1.2. Windows OS yaratilish tarixi vazirgi kundagixvoli

30 yil avval 1985 yilning 20 noyabr kuni Microsoft korporatsiyasi Windows operatsion tizimining ilk versiyasini taqdim etdi. Microsoft korporatsiyasi 1975 yilda Bill Geyts va Pol Allen tomonidan tashkil etilgan. 1970-yillarning oxirida u shaxsiy kompyuterlar uchun operatsion tizim (OT)larni ishlab chiqarish bilan shug'ullana boshladi. MS-DOS operatsion tizimning birinchilaridan edi, uning boshqaruvi buyruq qatori orqali amalga oshirilgan.

WINDOWS 1

1983 yil 10 noyabrda Microsoft Windows (ingl. "Oyna") nomli ilk grafik qobiqqa ega bo'lgan dastlabki OTni taqdim etdi. Uning savdolari 1985 yil 20 noyabrda boshlandi. Deyarli MS-DOS tarkibida bo'lgan ushbu operatsion tizimga asosiy ilovalar kiritilgan: kalkulyator, bloknot, Paint grafik muharriri, Write matn muharriri, soat, o'yinlar va b. Tizim bir necha vazifani bir vaqtning o'zida bajarish imkonini berar edi, biroq ular ekranda bir-birini to'sib qo'ygan holatda joylashar edi. OS apparat ta'minotida yuqori talablar va o'sha vaqtda keng tarqalmagan sichqonlarni sotib olish zarurati tufayli mashhurlikka erishmadi. Windows operatsion tizimi nusxasining ilk narxi Amerika bozorida 100 AQSh dollarini tashkil etgan, 500 ming nusxa sotilgan. Windows OT Apple kompaniyasi tomonidan Lisa kompyuterlari uchun ishlab chiqilgan (1983 yildan boshlab chiqarila boshlagan) grafik interfeysli boshqa operatsion tizimining raqobatchisiga aylandi.

WINDOWS 2

1987 yil 9 dekabrda Windows 2 OT taqdim etildi (natijada uning takomillashgan ko'rinishlari chiqarila boshlandi). U mukammallashtirilgan interfeys, shuningdek dastur oynalarining yig'ilishi imkoniyati bilan ajralib turar edi. Ilk narxi 100 AQSh dollarini tashkil qilgan, 1 million nusxa sotilgan.

WINDOWS 3

1990 yilning 22 mayida Windows 3 chiqarildi. Uning avvalgilaridan farqi, u 256 xil rangdagi dasturlar (avvalgilarida 16 ta rang) ni ishga tushirish imkoniga ega edi, bir qator qo'shimcha yangiliklar ham kiritilgan. 1992 yilda tarmoq ilovalari (Internetga ulana oladigan TCP/IP ham shular jumlasidandir) va rus tilini ishga tushira oladigan Windows 3.1 talqini paydo bo'ldi. OTning dastlabki narxi 149,45 AQSh dollarini tashkil qilgan. Windows 3.x Microsoft'ning tijorat jihatdan muvaffaqiyatga ega bo'lgan ilk talqini edi, uning 25 million nusxasi sotildi.

WINDOWS NT - BARChA ZAMONAVIY WINDOWS LARNING ASOSI

1993 yilning 27 iyulida Windows NT OT paydo bo'ldi, u serverlar bozori (kompyuter tizimini ta'minlovchi kompyuterlar) va ishchi stantsiyalar (statsionar kompyuterlar)ga yo'naltirilgan edi. U odatiy Windows OTdan alohida ishlab chiqilgan, barcha zamonaviy Windows'larning asosiga aylandi.

WINDOWS 95

1995 yilning 24 avgustida shaxsiy kompyuterlar uchun Windows 95 operatsion tizimi chiqarildi, unda (Start) tugmachasi paydo bo'ldi, 16 bitli to'liq palitra (65 mingdan ortiq ranglar) ishga tushirildi va interfeys elementlari joyi o'zgartirildi, bu joylashuv Windows 8 paydo bo'lguniga qadar saqlanib qoldi. Windows 95 Microsoft va IBM-PC kompyuterlariga bozorda Apple'dan o'zib ketish va etakchilik qilish imkonini yaratdi. Birinchi yilning o'zidayoq Windows 95'ning 40 million nusxasi 210 AQSh dollari narxida sotildi (Windows 3.1 talqinida esa narx 110 AQSh dollarini tashkil etgan).

WINDOWS 98

1998 yilning 25 iyunida Windows 98 OT chiqarildi. Windows 95'ning rivojlantirilgan talqini USB qurilmalari va katta hajmli qattiq disklardan foydalanish, internet, jumladan Internet Explorer i Outlook Express'dan foydalanishda yanada yaxshilangan imkoniyatga ega edi. Dastlabki to'rt kundayoq 530 ming nusxa 110 AQSh dollaridan 210 AQSh dollarigacha bo'lgan narxda sotilgan.

WINDOWS ME

2000 yilning 19 iyunida Windows 9x - Millenium Edition platformasidagi so'nggi OT chiqarilgan. U uyda fodalanish uchun mo'ljallangan, tomosha qilish, videolarni tahrir qilish va boshqa bir qator imkoniyatlarga ega bo'lgan. Turli OAV va ekspertlar uning ishonchlilik darajasi past ekanligini bir necha bor tanqid ostiga oldilar. Dastlabki uch kun ichida 200 ming ta nusxa 59,95 AQSh dollari narxida sotilgan.

WINDOWS XP – ENG MASHHUR VERSIYASI

2001 yilning 15 avgustida Windows XP OT savdolari boshlandi, u OT tarixidagi eng mashhurlaridan biriga aylandi. Texnik yordamga chek qo'yilishi va viruslarga nisbatan nozik bo'lishiga qaramay, NetMarketshare tahliliy saytining ma'lumotlariga qaraganda, u hozirga qadar dunyodagi barcha kompyuterlarning 11,68 foizida o'rnatilgan. Dastlabki narxi 85 AQSh dollaridan boshlanadi. 2015 yil holatiga ko'ra, 1 milliardga yaqin nusxasi sotilgan.

WINDOWS VISTA

2006 yilning 30 noyabrida Windows Vista paydo bo'ldi. Asosiy yaxshilangan tomonlari orasida viruslarga qarshi himoya va Aero grafik interfeysini qayd etish mumkin. Mazkur OTni operatsiyalarni sekin amalga oshirishi, doimiy ravishda parolni kiritish va kompyuter qaroqchiligi huquqidagi murakkab tizim tufayli tanqid qilishgan. Sotuvlar boshlanganidan bir oy o'tgach, 20 million nusxa talqiniga qarab 199 dan 399 AQSh dollarigacha bo'lgan narxda sotilgan.

WINDOWS 7

2009 yilning 22 oktyabrida Windows 7 OT savdoga chiqarildi. Unda Vista'dagi kamchiliklar bartaraf etilgan va interfeys yaxshilangan. Dastlabki narxi – 159,99 dan 319,99 AQSh dollari qiymatida. Ikki yil ichida 450 millondan ortiq nusxalar sotildi. NetMarketshare ma'lumotlariga ko'ra, 2014 yilning noyabrida dunyodagi barcha kompyuterlarning 55,71 foizida o'rnatilgan.

WINDOWS 8

2012 yilning 26 oktyabrida Microsoft Windows 8 OTni ishga tushirdi. Unda “Pusk” tugmasidan voz kechish va foydalanuvchi interfeysini butunlay qayta ishlab chiqib, ekrandagi “plitka” elementlari ko'rinishida "Metro" muhitiga almashtirishga qaror qilindi. Mazkur talqin oddiy kompyuterlarga qaraganda planshetlar uchun mo'ljallangan deya tanqid ostiga olingan. Kamchiliklarning bir qismi Windows 8.1 da bartaraf etildi. Dastlabki olti oy ichida 100 milliondan ortiq nusxasi sotildi. Ilk narxi 14,55 dan 199,99 AQSh dollarini tashkil etgan. 2015 yil iyun oyi holatiga ko'ra, 10,68 foiz shaxsiy kompyuterlarda undan foydalanilmoqda.

WINDOWS 10

2015 yilning 25 iyulida yangi talqin Windows 10 sotuvga chiqarildi. U barcha platformalar – serverlardan tortib, mobil telefonlar uchun yagona tizimga aylandi. O'zgartirilgan elementlar orasida shaxsiy kompyuterlar uchun "Pusk" menyusi va tugmasining qaytishini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Windows 7 va Windows 8 OT foydalanuvchilari yangi talqinga bepul “apgreyd” ga ega bo'lishdi, yangi nusxa 119 dan 199 AQSh dollari qiymatida edi. Ilk 2,5 oy mobaynida yangi tizim 110 milliondan ortiq kompyuterlarda o'rnatildi, operatsion tizim bozoridagi ulushi 2015 yil noyabr oyi holatiga ko'ra, 7,94 foizni tashkil etmoqda.

1.3. Windowsda ishlash bo'yicha video taqdimotlaryaratish


Camtasia Studio dasturidan foydalanib video darslik yaratish

Camtasia Studio dasturi o'zining interfeysi, juda ko'plab formatlari, video fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo'yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin. Dars yozish davomida ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko'rsatish imkoni ham mavjud. Ana shu afzalliklari tufayli videodarslar yozuvchi dastur sifatida Camtasia Studio tanlandi. Camtasia Studio dasturi to'rtta yordamchi qismlardan iborat: Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater va Camtasia Recorder. Dasturning asosiy qismi, shubhasiz, Camtasia Recorder hisoblanadi. Barcha darslar aynan shu dastur yordamida yaratildi.

Camtasia Studio dasturi oynasining pastki qismida timeline deb nomlanuvchi ishchi stoli mavjud bo'lib, u orqali audio va video fayllar ustida turli xil amallarni bajarish mumkin. Bular jumlasiga fayllarni bir-biriga bog'lash, keraksiz qismlarni qirqib tashlash kabilar kiradi. Asosiy oynaning markazida dastur ishlashi mumkin bo'lgan fayllar ro'yxatini ko'rsatuvchi «Корзинаклипов» (Clip Bin) qismi joylashgan. Shu fayllarni o'ng tarafdagi videopleyerda ko'rish mumkin. Bu kichkinagina Camtasia Player dasturi faqatgina bitta vazifani bajaradi — AVI fayllarini namoyish etadi.

Ishning borishi:

Dastlab qiladigan ishimiz Camtasia Studio dasturini ishga tushiramiz. Quyida uning ish stoli ko'rsatilgan.



Camtasia Studio ishchi paneli bilan tanishishni

 **Record the screen**

boshlaymiz.

 **Record PowerPoint**

Bu ikki bo'lim ekranda bo'ladigan jarayonlarni rasmga tushirib, ovozini yozib ularni birlashtirib video fayl yaratish uchun ishlatiladi. Ikkinchisi aynan


powerpointda bo'ladigan voqealarni yozib oladi.

O'quv multimediyali ilovalar yaratish.


Buning uchun biz yuqoridagi record panelidan foydalanishimiz mumkin yoki bo'lmasa dastur ishga tushgan paytida quyidagi oyna chiqadi. Shu oyna orqali ham video ilovalarni yozishni boshlashimiz mumkin.



Record the screen bosadigan bo'lsak quyidagi oyna oyna chiqadi. Bu oyna orqali biz ekranning qancha yoki qanday qismini videoga olishimiz mumkinligini tanlashimiz mumkin. Undan tashqari camera tugmasini bosish orqali biz web kamerani ishga tushirib undan foydalanishimiz mumkin. Audio tugmasi esa ovoz bilan yozish yoki yozmaslikni tanlash imkoniyatini beradi. Rec tugmasini bosishimiz bilan ta'svirga olish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonni to'xtatish uchun f 10 tugmasini bosish yetarli.




F10 tugmasi bosilgandan so'ng quyidagi oyna chiqadi. Bu oyna orqali video faylni o'chirish, saqlash, o'zgartirish kabi vazifalarni bajarishimiz mumkin.




Bunday saqlashda biz video faylni ikki xil formatda saqlashimiz mumkin:

*.camres va *.avi.




Natijada videofaylimiz yaratiladi.


Windowsni ishga tushirishuchun eng avvalo kompyuter yoqiladi.



1-rasm. Windowsning ish stoli.




2-rasm. “Mening kompyuterim” maxsus papkasi kompyuterda joylashgan hamma ob'ektlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Agar u ochilsa, unda doimo ishlatiladigan disklar, ekran, tarmoqlar hamda markaziy boshqarish komanda sistemasi bo'lgan «boshqarish paneli»ga va «printer»ga chiqiladi.




3-rasm. Ish stolida belgilar quyidagilarga mos kelishi mumkin:

- disklar;
- dokumentlar(hujjatlar);


- papkalar;
- yarliklar;
- ilovalar.




4-rasm. Yangihujjat ochish. Sichqonchani o'ng tugmasini menu «fayl» elementining ustiga olib kelib bosilsa, menu osti bo'lgan «Sozdat» ga kiriladi va yangi hujjatlar ochiladi.




5-rasm. Dokument yoki ob'ektlar nomini o'zgartirish uchun sichqoncha o'ng tugmachasi bosilib «Переименовать» komandasi beriladi.



6-rasm. Panelni boshqarish Windows sistemasining asosiy komandalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Unga kirish uchun «Пуск» tugmachasini bosish va u yerdan («Настройка панел инструментов») panelni boshqarishni to'g'rilash elementini tanlash kifoya.



7-rasm. Fayl yoki fayllar guruhini o‘chirish uchun ularni belgilab, «Del» tugmachasi bosiladi va «Yes» belgisi bosiladi yoki “удалить” tanlanadi.



8-rasm. Windows sistemasidan chiqish va kompyuterni o‘chirish uchun «Pusk» komandasi bosiladi va «Ishni tugatish» menyusini tanlab sichqoncha tugmachasi bosiladi.

Xulosa

Ushbu kurs ishida WindowsOSda ishlashni o'rgatuvchi videomateriallartayyorlash. yaratish masalalari ko'rib chiqilgan. Hozirda ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga yangi axborot texnologiya vositalarini joriy qilish amalga oshirilayotgan bir paytda dasturiy vositalarning yetishmovchiligi sezilmoqda. Bu jarayonning samaradorligini oshirish yangi axborot texnologiyalari vositalarini ta'limga yangicha yondashish asosida qo'llash uchun rivojlangan va ko'p maqsadli dasturiy ta'minotlar zarur. Bu shartlar asosida mening kurs ishining mavzusi, uning tadqiqot predmeti juda ham o'rinlidir. Bu masalaning dolzarbligi dasturiy ta'minotlar bozoridagi vaziyat, dasturiy-metodik ishlanmalar, yangi dasturiy-uslubiy qo'llanmalar, amaliyotda ta'limning yangi shakl va usullari bilan akslangan. Shuning uchun, o'qituvchining ishini yengillashtiruvchi hamda o'quvchilarni o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan Windows OSda ishlashni o'rgatuvchi video materiallartayyorlash ishlab chiqarishni birinchi darajali vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
- 3.A.S Makarenko. Pedagogicheskie sochineniya v 8tomax Pedagogika, 1983.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.,1997.
- 5.S.X. Sidiqov, V.S. Smorshevskiy, S.S. PorsievTelekommunikatsiya aloqa tizimlarining tuzilish asoslari. O'quv qo'llanma. T.: TEAI, 1999.
6. Quyidagi internet manbalardan foydalanildi:
 - <http://elearning.zn.uz>
 - <http://www.atutor.ca>
 - <http://www.olat.org>
 - <http://www.dokeos.com>
 - <http://www.efrontlearning.net>
 - <http://www.ilias.de>
 - <http://www.dlearn.org>
 - <http://lamsfoundation.org>
 - <http://www.sakaiproject.org>
 - <http://dc.uz>